“Asakabank” aksiyadorlik jamiyati Aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi

3-SONLI BAYONNOMASIDAN KO’CHIRMA

Toshkent shahri, Toshkent-siti, Asaka Tower, 2026-yil 18-sentabr, soat: 15.00.

Ishtirok etgan aksiyadorlar:

J.A.Abdushukurov - O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi
(Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining 2023-yil 24-avgustdagi OYU-07/08-739-son ishonchnomasi asosida Jamg‘armaga tegishli aksiya paketlari bo‘yicha aksiyador vakolatlarini amalga oshirish va boshqarish funksiyalari O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligiga berilgan)
O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi. (63 930 224 604 dona oddiy aksiya – 99,35% ovoz)

B.A.Axadov - «O‘zagrosug‘urta» AJ (34 790 745 dona oddiy aksiya – 0,05% ovoz);

Kengash a’zosi:

J.A.Abdushukurov - Kengash a’zosi – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi Davlat aktivlarini xususiylashtirish va transformatsiya qilish departamenti direktori

Bank Boshqaruvi a’zolari va xodimlari:

S.U.Zakirov - Boshqaruv Raisi v.v.b.

A.Semmari - Moliyaviy direktor

T.I.Isroilov - Korporativ munosabatlar xizmati boshlig‘i

A.F.Abdimajitov - Strategik rivojlanish va iqtisodiy tahlil departamenti direktori

Sanoq komissiyasi:

T.I.Isroilov - Korporativ munosabatlar xizmati boshlig‘i

L.R.Gafurova - Korporativ munosabatlar xizmati katta koordinatori

A.Sh.Rasulov - Korporativ munosabatlar xizmati koordinatori

Yig‘ilish ochilishidan oldin, Korporativ munosabatlar xizmati boshlig‘i T.I.Isroilov chiqish qilib, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini

himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunning 58-moddasiga muvofiq, aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini jamiyat kuzatuv kengashining raisi, u uzrli sabablarga ko‘ra bo‘lmagan taqdirda esa, jamiyat kuzatuv kengashining a’zolaridan biri olib borishi belgilanganligini aytib o‘tdi.

Shundan so‘ng, Bank Kengashi a’zosi J.A.Abdushukurov – yig‘ilish raisi sifatida, Bankning Korporativ munosabatlar xizmati boshlig‘i T.I.Isroilovni – yig‘ilish kotibi etib saylash masalasi ovozga qo‘yildi.

Shuningdek, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunning 66-moddasiga muvofiq aksiyadorlar Sanoq komissiyasini saylash masalasini ham ko‘rib chiqdilar va quyidagi 3 nafar nomzoddan iborat Sanoq komissiyasini saylash masalasi ovozga qo‘yildi:

T.I.Isroilov

L.R.Gafurova

A.Sh.Rasulov

Yig‘ilishga raislik qiluvchi J.A.Abdushukurov yig‘ilganlarni aksiyadorlarning navbatdagi yillik umumiy yig‘ilishi kun tartibi bilan tanishtirdi va yig‘ilish o‘tkazish uchun quyidagi reglamentni tasdiqlashni taklif qildi:

• ma’ruzalar - 5 daqiqagacha;

• savollarga javoblar - 3 daqiqagacha;

• muhokamalarda chiqish qilish - 3 daqiqagacha.

Ovozga qo‘yilgan nomzodlar hamda yig‘ilish reglamenti bir ovozdan ma’qullandi.

Sanoq komissiyasi raisi T.Isroilov aksiyadorlarga quyidagilarni ma’lum qildi: Bank aksiyadorlarining 2026-yil 14-sentabr holatiga shakllantirilgan reyestriga muvofiq yig‘ilishda 6 nafar aksiyadorga tegishli 64 346 266 244 dona ovoz beruvchi aksiyalar ishtirok etishi mumkin edi. Ro‘yxatga olish tugaguniga qadar 63 965 015 349 dona yoki 99,4 foiz ovoz beruvchi aksiyalarga egalik qiluvchi 2 nafar aksiyador ro‘yxatdan o‘tdi. O’zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 68-moddasiga muvofiq, agar aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida ishtirok etish uchun ro‘yxatdan o‘tkazish tugallangan paytda jamiyatning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami ellik foizidan ko‘proq ovoziga ega bo‘lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lsa, aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi vakolatli (kvorumga ega) bo‘ladi. Shunga asosan umumiy yig‘ilishni o‘tkazish uchun kvorum mavjud (Sanoq komissiyasining bayonnomasi).

Yig‘ilishga raislik qiluvchi J.A.Abdushukurov yig‘ilganlarni aksiyadorlarning navbatdagi yillik umumiy yig‘ilishi kun tartibi bilan tanishtirdi.

KUN TARTIBI

1. “Asakabank” AJning 2026-yil uchun qayta ko‘rib chiqilgan Biznes-rejasini tasdiqlash;

2. “Asakabank” AJ Boshqaruvi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalarni tasdiqlash;

3. “Asakabank” AJ Ustaviga o‘zgartirish va qo‘shimchalarni tasdiqlash;

4. “Asakabank” AJ Kengashi a’zolarini saylash.

1. “Asakabank” AJning 2026-yil uchun qayta ko‘rib chiqilgan Biznes-rejasini tasdiqlash.

Kun tartibidagi ikkinchi masala bo‘yicha Strategik rivojlanish va iqtisodiy tahlil departamenti direktori A.F.Abdimajitov so‘zga chiqib, Bankning 2026-yil uchun tasdiqlangan biznes-rejasini joriy bozor sharoitlari va 2026-yilning dastlabki 4 oyi yakunlari asosida Bank Kengashi tomonidan 2026-yil 18-iyun kuni (Bank Kengashi yig‘ilishi bayonnomasidan ko‘chirma ilova qilinadi) Bankning 2026-yil uchun biznes-rejasini qayta ko‘rib chiqish taklifini bildirilgan.

Ta’kidlanganidek, taklif etilayotgan o‘zgartirishlar Bankning strategik maqsadlarini o‘zgartirmaydi, balki moliyaviy va balans ko‘rsatkichlarini amaldagi sharoitlarga moslashtirishga qaratilgan. Xususan:

- foizli daromadlar 348,7 mlrd so‘mga kamayib, 5 720,2 mlrd so‘mni;
- foizli xarajatlar 335,9 mlrd so‘mga kamayib, 4 684,4 mlrd so‘mni;
- sof foizli daromad 12,8 mlrd so‘mga kamayib, 1 035,8 mlrd so‘mni;
- hamkor kompaniya bilan (GM) operatsiyalardan olinadigan komission daromad 131,3 mlrd so‘mga kamayib, 568,7 mlrd so‘mni;
- operatsion xarajatlar 102,3 mlrd so‘mga kamayib, shundan 65,7 mlrd so‘mi mehnatga haq to‘lash xarajatlariga to‘g‘ri kelishi;
- kredit portfeli qoldig‘i 47 236,7 mlrd so‘mni tashkil etishi rejalashtirilgan.

Bankning majburiyatlari va resurs bazasi bo‘yicha ham o‘zgartirishlar kiritish taklif etildi. Xususan, muddatli depozitlar qoldig‘ini jismoniy shaxslar bo‘yicha 1 275,2 mlrd so‘mga, yuridik shaxslar bo‘yicha esa 2 503,8 mlrd so‘mga kamaytirish nazarda tutilgan.

Xalqaro moliya institutlaridan jalb qilingan mablag‘lar bo‘yicha 2026-yil yakuniga rejalashtirilgan qoldiqni 2 606,4 mlrd so‘mga kamaytirib, 28 969,5 mlrd so‘m miqdorida belgilash taklif etilgan. Mazkur o‘zgartirish kredit portfelining qayta ko‘rib chiqilgan hajmini inobatga olgan holda resurs bazasini Bankning aktiv operatsiyalariga bo‘lgan ehtiyojiga mutanosiblashtirishga qaratilgani ta’kidlandi.

Shu bilan birga, yuqorida ko‘rsatilgan daromad manbalari bo‘yicha ayrim ko‘rsatkichlarning pasayishiga qaramasdan, resurslar qiymati va operatsion xarajatlarni optimallashtirish hisobiga Bankning yakuniy moliyaviy natijasini yaxshilash kutilmoqda.

Yangilangan biznes-rejaga muvofiq, zaxiralar shakllantirilishi va soliqqa tortishdan oldingi daromad 60,1 mlrd so‘mga oshib, 1 394,0 mlrd so‘mni tashkil etishi kutilmoqda. Zaxiralarni shakllantirish xarajatlari esa tasdiqlangan biznes-rejadagi darajada — 852,5 mlrd so‘m miqdorida saqlanib qoladi.

Natijada, 2026-yil yakuni bo‘yicha Bankning sof foydasi 48,1 mlrd so‘mga oshib, 399,1 mlrd so‘mni tashkil etishi rejalashtirilmoqda.

Shuningdek, yangilangan biznes-rejada Bank faoliyati samaradorligining asosiy ko‘rsatkichlari yaxshilanishi kutilmoqda. Xususan, CIR 54,1 foizdan 51,3 foizga, ROA 0,5 foizdan 0,6 foizga, ROE 3,6 foizdan 4,1 foizga o‘zgarishi hamda sof foyda 351,0 mlrd so‘mdan 399,1 mlrd so‘mga oshishi rejalashtirilgan.

J. Abdushukurov taklif etilgan o‘zgartirishlarga o‘z noroziligini bildirdi va 2026-yil uchun dastlab tasdiqlangan reja ko‘rsatkichlariga rioya qilishni taklif etdi. Shuningdek, u Bank Kengashi va Boshqaruvini reja ko‘rsatkichlarini amalga oshirish uchun barcha sa’y-harakatlarni sarflashga chaqirdi.

Yuqoridagilar eshitilgandan so‘ng, Aksiyadorlar tomonidan mazkur masala atroflicha muhokama qilindi. Muhokamadan so‘ng, yig‘ilishga raislik qiluvchi J.A.Abdushukurov kun tartibidagi mazkur masalani ovozga qo‘yishni taklif qildi.

Ovoz berish natijalari:
Rozi: 63 965 015 349 (100 foiz).
Betaraf: yo‘q
Qarshi: yo‘q

Qaror qabul qilindi:

1. “Asakabank” AJning 2026-yil uchun biznes-rejasiga kiritilgan o‘zgartirishlar 1 - ilovaga muvofiq ma`lumot uchun qabul qilinsin.

2. “Asakabank” AJning 2026-yil uchun amalda tasdiqlangan Biznes-rejasi asosiy ko‘rsatkichlari o‘zgarishsiz qoldirilsin.

2. “Asakabank” AJ Boshqaruvi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalarni tasdiqlash.

Kun tartibidagi ikkinchi masala bo‘yicha Bankning Korporativ munosabatlar xizmati boshlig‘i T.I.Isroilov so‘zga chiqib, “Asakabank” AJ Boshqaruvi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi masala yuzasidan tegishli ma’lumot taqdim etdi.

Ta’kidlanganidek, mazkur o‘zgartirishlar Bankda korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish, kollegial ijroiya organi — Bank Boshqaruvi tarkibini optimallashtirish hamda uning faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida ishlab chiqilgan.

Taklif etilayotgan o‘zgartirishlarga muvofiq, Boshqaruv to‘g‘risidagi nizomning 9-bandi yangi tahrirda bayon etilishi va Boshqaruv tarkibiga Boshqaruv

Raisi hamda Bank Kengashining qarori bilan tayinlanadigan shaxslar kirishi nazarda tutilgan.

Shu munosabat bilan amaldagi Nizomdagi Boshqaruv tarkibiga Boshqaruv Raisining o‘rinbosarlari, Bosh buxgalter, yuridik xizmat rahbari hamda Bankning asosiy tarkibiy bo‘linmalari rahbarlarini majburiy ravishda kiritish to‘g‘risidagi qoidalarni chiqarib tashlash taklif etilmoqda.

Mazkur o‘zgartirishlar Boshqaruvning soni va shaxsiy tarkibini optimallashtirish, uni shakllantirish tartibini Bank Kengashi qarorlariga muvofiqlashtirish, shuningdek, Boshqaruv faoliyatini samarali tashkil etish va qarorlar qabul qilishda kvorum bilan bog‘liq talablarning bajarilishini ta’minlashga qaratilgan.

Yuqoridagilar eshitilgandan so‘ng, Aksiyadorlar tomonidan mazkur masala atroflicha muhokama qilindi. Muhokamadan so‘ng, yig‘ilishga raislik qiluvchi J.A.Abdushukurov kun tartibidagi mazkur masalani ovozga qo‘yishni taklif qildi.

Ovoz berish natijalari:
Rozi: 63 965 015 349 (100 foiz).
Betaraf: yo‘q
Qarshi: yo‘q

Qaror qabul qilindi:

1. “Asakabank” AJ Boshqaruvi to‘g‘risidagi nizomga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar 2 - ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. “Asakabank” AJ Ustaviga o‘zgartirish va qo‘shimchalarni tasdiqlash.

Kun tartibidagi masala bo‘yicha Bankning Korporativ munosabatlar xizmati boshlig‘i T.I.Isroilov so‘zga chiqdi. U quyidagilarni ma’lum qildi.

“Asakabank”AJ Kengashining 2026-yil 14-avgustdagi 32-sonli yig‘ilish bayonnomasi bilan tasdiqlangan qaror ijrosini ta’minlash maqsadida, “Asakabank” AJ Ustaviga o‘zgartirish va qo‘shimchalar Bankda korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish va Boshqaruv - kollegial ijroiya organining tarkibini optimallashtirish maqsadida ishlab chiqilgan.

Taklif etilayotgan o‘zgartirishlarga muvofiq, Bank Ustavining 189-bandi yangi tahrirda bayon etilishi nazarda tutilgan. Yangi tahrirga ko‘ra, Bank Boshqaruvi tarkibiga Boshqaruv Raisi hamda Bank Kengashining qarori bilan tayinlanadigan shaxslar kirishi mumkin.

Shu bilan birga, amaldagi Ustavda Boshqaruv tarkibiga Boshqaruv Raisining o‘rinbosarlari, Bosh buxgalter, yuridik xizmat rahbari hamda Bankning asosiy tarkibiy bo‘linmalari rahbarlarini majburiy ravishda kiritish bo‘yicha nazarda tutilgan qoidalarni chiqarib tashlash taklif etilmoqda.

Mazkur o‘zgartirishlar Boshqaruvning miqdoriy va shaxsiy tarkibini optimallashtirish, uning shakllantirilish tartibini Bank Kengashi qarorlariga muvofiqlashtirish hamda Boshqaruv faoliyatini samarali tashkil etish uchun zarur

shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan. Bank Ustavi va Boshqaruv to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirishlarning bir vaqtda kiritilishi mazkur hujjatlar qoidalarining o‘zaro muvofiqligini ta’minlash zarurati bilan bog‘liq.

Yuqoridagilar eshitilgandan so‘ng, Aksiyadorlar tomonidan mazkur masala atroflicha muhokama qilindi. Muhokamadan so‘ng, yig‘ilishga raislik qiluvchi J.A.Abdushukurov kun tartibidagi mazkur masalani ovozga qo‘yishni taklif qildi.

Ovoz berish natijalari:
Rozi: 63 965 015 349 (100 foiz).
Betaraf: yo‘q
Qarshi: yo‘q

Qaror qabul qilindi:

1. “Asakabank” AJ Ustaviga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar 3 - ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. “Asakabank” AJ Kengashi a’zolarini saylash.

Kun tartibidagi mazkur masala bo‘yicha Bankning Korporativ munosabatlar xizmati boshlig‘i T.I.Isroilov so’zga chiqdi hamda quyidagilarni ma’lum qildi.

Bankka O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligidan, “Asakabank” AJning 24 171 487 789 dona oddiy aksiyalariga egalik qiluvchi aksiyadordan xat kelib tushgan.

Mazkur aksiyador “Asakabank” AJ Kengashining a’zosi Umrzaqov Ilxomjon O`rinboy og`lining boshqa ishga o‘tishi munosabati bilan Kengash a’zoligidan chiqarish, uning o‘rniga Maxkamov Rustam Xusniddinovichni Bank Kengashining a’zoligiga saylash masalasini “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq Bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi kun tartibiga kiritishni so‘ragan.

Maxkamov Rustam Xusniddinovich – yuridik sohada 20 yildan ortiq ish tajribasiga ega mutaxassis. Mehnat faoliyatini 2003-yilda Adliya vazirligi Toshkent shahar boshqarmasida boshlab, keyinchalik Qimmatli qog‘ozlar Markaziy depozitariysi hamda Moliya va Iqtisodiyot vazirliklarida mas’ul yuridik lavozimlarda ishlagan. 2023-yil iyun oyidan buyon O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi Yuridik departamentining boshqarma boshlig‘i lavozimida faoliyat yuritmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, Kuzatuv kengashi a’zolarini saylash aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi vakolatiga kiradi va ular uch yil muddatga saylanadi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, Bank Aksiyadorlari muhokamasiga Bank Kengashining a’zosi Umrzaqov Ilxomjon O`rinboy og`lining boshqa ishga o‘tishi sababli, uning vakolatlarini muddatidan oldin tugatish hamda uning o’rniga Maxkamov Rustam Xusniddinovichni “Asakabank” AJ Kengashining a’zosi sifatida saylash masalasini taklif qilinmoqda.

Shundan so‘ng, Bank aksiyadorlari tomonidan kun tartibiga qo‘yilgan masala muhokama qilindi. Muhokamadan so‘ng, yig‘ilishga raislik qiluvchi J.A.Abdushukurov kun tartibidagi mazkur masalani ovozga qo‘yishni taklif qildi.

Ovoz berish natijalari:

Nomzodlar	Ovozlar soni
Maxkamov Rustam Xusniddinovich – Kengashning a’zoligiga nomzod	63 965 015 349

Qaror qabul qilindi:

1. “Asakabank” AJ Kengashining a’zosi Umrzaqov Ilxomjon O`rinboy og`lining “Asakabank” AJ Kengashi a’zoligidagi vakolatlari muddatidan oldin tugatilisin.

2. “Asakabank” AJ Kengashining a’zosi lavozimiga Maxkamov Rustam Xusniddinovich 3 (uch) yil muddatga saylansin.

3. “Asakabank” AJ Kengashiga a’zo sifatida saylangan Maxkamov Rustam Xusniddinovich O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunining 36-moddasi talablariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan kelishish amalga oshirilgandan so‘ng o‘z vakolatlarini bajarishga kirishishi belgilansin.

Shundan so‘ng, Sanoq komissiyasi raisi T.I.Isroilov kun tartibidagi masalalar yuzasidan ovoz berish natijalarini e’lon qildi (Sanoq komissiyasi bayonnomasi).

Shuning bilan, yig‘ilishga raislik qiluvchi Bank Kengashi a’zosi J.A.Abdushukurov aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini yopiq deb e’lon qildi.

Umumiy yig‘ilish bayonnomasi 2026-yil 28-sentabrda 2 (ikki) nusxada imzolandi.

Руководитель Службы
Корпоративных отношений **Т.Исроилов**